



## NORASMIY SEKTORNI QISQARTIRISH ORQALI IJTIMOIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH

**Bobonazarova Yulduz**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-8650-7984

[boronboron42@gmail.com](mailto:boronboron42@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada norasmiy bandlikni qisqartirish orqali ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekonometrik va statistik tahlil usullari qo'llanilib, norasmiy bandlik darajasi bilan ijtimoiy himoya qamrovi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, norasmiy sektorni qisqartirish ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini oshiradi hamda davlat byudjeti tushumlarini ko'paytiradi.

**Kalit so'zlar:** norasmiy bandlik, ijtimoiy himoya, rasmiy sektor, integratsiya, bandlik siyosati, ekonometrik model.

## РАСШИРЕНИЕ ОХВАТА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЧЕРЕЗ СОКРАЩЕНИЕ НЕФОРМАЛЬНОГО СЕКТОРА

**Бобоназарова Юлдуз**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы расширения охвата системы социальной защиты за счёт сокращения неформальной занятости. В исследовании применены эконометрические и статистические методы анализа, на основе которых выявлена взаимосвязь между уровнем неформальной занятости и охватом социальной защиты. Полученные результаты показывают, что сокращение неформального сектора способствует повышению устойчивости системы социальной защиты, а также увеличению поступлений в государственный бюджет.

**Ключевые слова:** неформальная занятость, социальная защита, формальный сектор, интеграция, политика занятости, эконометрическая модель

## EXPANDING SOCIAL PROTECTION COVERAGE THROUGH REDUCING THE INFORMAL SECTOR

**Bobonazarova Yulduz**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article examines the issues of expanding the coverage of the social protection system through the reduction of informal employment. The study applies econometric and statistical analysis methods to identify the relationship between the level of informal employment and the coverage of social protection. The findings indicate that reducing the informal sector enhances the sustainability of the social protection system and contributes to an increase in government budget revenues.

**Keywords:** informal employment, social protection, formal sector, integration, employment policy, econometric model.

### **Kirish.**

Zamonaviy iqtisodiyotda norasmiy bandlik ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan ishchilar odatda ijtimoiy himoya tizimidan chetda qoladi, bu esa ularning ijtimoiy xavfsizligini pasaytiradi. O'zbekiston sharoitida ham norasmiy bandlik darajasi mehnat bozorining muhim tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolmoqda. Bu esa ijtimoiy sug'urta tizimi, pensiya ta'minoti va boshqa ijtimoiy xizmatlar qamrovining yetarli darajada kengaymasligiga olib keladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**


Norasmiy bandlik va ijtimoiy himoya tizimi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, F. Schneider (2012) tadqiqotlariga ko'ra, norasmiy iqtisodiyotning kengayishi asosan yuqori soliq yuklamasi va ortiqcha tartibga solish bilan bog'liq bo'lib, bu holat davlat byudjeti daromadlarini kamaytiradi hamda ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat bozori va norasmiy sektorni o'rgangan F. Maloney (2004) norasmiy bandlikni rivojlanayotgan davlatlarda mehnat bozorining moslashuvchan shakli sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, norasmiy sektor qisqa muddatda ish bilan ta'minlashni oshirsa-da, uzoq muddatda ijtimoiy himoya tizimidan tashqarida qolgan ishchilar sonining ortishiga olib keladi. Ijtimoiy himoya tizimlari nazariyasini rivojlantirishda Andersen (1990) muhim o'rin tutadi. Uning farovonlik davlatlari modeli asosida olib borilgan tadqiqotlarida ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi rasmiy bandlik darajasi bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, S. Devereux (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy himoya tizimlari kambag'allikni kamaytirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Unga ko'ra, norasmiy sektorda band bo'lgan aholi qatlamlari ushbu tizimlardan chetda qolishi ijtimoiy tengsizlikning ortishiga sabab bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari ham ushbu bog'liqlikni tasdiqlaydi. Xususan, International Labour Organization (2021) hisobotlarida norasmiy bandlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya qamrovi pastligi qayd etilgan. Shuningdek, World Bank (2014) tadqiqotlarida rasmiy bandlikni kengaytirish orqali ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish mumkinligi ta'kidlanadi. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham ushbu masala keng o'rganilgan. Xususan, Q. Abdurahmonov (2019) ilmiy ishlarida bandlik siyosati va ijtimoiy himoya tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilib, norasmiy bandlikni qisqartirish orqali ijtimoiy sug'urta qamrovini kengaytirish mumkinligi ta'kidlanadi. Shuningdek, S. G'ulomov (2018) tadqiqotlarida mehnat bozori rivoji va bandlik siyosati masalalari yoritilib, iqtisodiyotni rasmiylashtirish ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashning asosiy sharti sifatida qaraladi. Bundan tashqari, B. Xodiyev (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali bandlikni oshirish hamda norasmiy sektorni qisqartirish mumkinligi asoslab berilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Metadologiyasi: Mazkur tadqiqotda norasmiy sektorni qisqartirish orqali ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish jarayonini tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy va empirik usullar uyg'unligiga asoslanib, iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashga qaratildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tadqiqotlarga qaraganda norasmiy bandlik darajasi dastlabki holatiga qaraganda ancha pasaygan bu holatni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



**1-rasm. Mehnatga layoqatli aholi tarkibi va uning bandlik holati**

Ushbu 1-rasmda mehnatga layoqatli aholi tarkibini va uning bandlik holati bo'yicha taqsimlanishini aks ettiradi. Umumiy mehnatga layoqatli aholi soni 20,3 mln kishini tashkil etib, u ikki asosiy guruhga ajratilgan: iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholi. Iqtisodiy faol aholi 15,4 mln kishini tashkil etadi. Ushbu guruhning asosiy qismini band aholi egallab, ularning soni 14,6 mln kishini tashkil qiladi. Band aholi o'z navbatida uch toifaga bo'linadi:

- Y Rasmiy bandlar – 8 mln kishi (55%)
- Y Norasmiy bandlar – 4,8 mln kishi (33%)
- Y Xorijda ishlayotganlar – 1,7 mln kishi (12%)


Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, rasmiy sektor ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, norasmiy bandlik ulushi ham sezilarli darajada yuqori. Ayniqsa, norasmiy sektorning 33 foizni tashkil etishi ijtimoiy himoya tizimi qamrovining cheklanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy nafaol aholi esa 4,9 mln kishini tashkil etib, quyidagi toifalarga ajratilgan:

- ❖ Ta'lim olayotganlar – 2 mln (41%)
- ❖ Bola parvarishi yoki tug'ish ta'tilidagilar – 2,2 mln (44%)
- ❖ Ishlashni xohlaydigan, lekin imkoniyati yo'qlar – 0,8 mln (15%)

Mazkur tarkib mehnat resurslarining muhim qismi hali to'liq iqtisodiy faoliyatga jalb etilmaganligini ko'rsatadi. Shuningdek, rasm da rasmiy bandlar sonining 19% ga oshgani qayd etilgan bo'lib, bu iqtisodiyotda rasmiylashtirish jarayonlari kuchayayotganidan dalolat beradi. Bu holatni 1-rasmda ko'rish mumkin.

2-rasmda ishsizlar soni, ishsizlik darajasi, norasmiy sektorda band bo'lganlar soni hamda rasmiy sektorda band bo'lganlar sonining 2020–2025-yillar oralig'idagi o'zgarish tendensiyasi tasvirlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, ishsizlar soni va ishsizlik darajasi 2020-yilda yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan bo'lsa, keyingi yillarda ularning bosqichma-bosqich kamayish tendensiyasi kuzatiladi. Bu holat mehnat bozorida barqarorlashuv jarayonlari yuz berayotganligini anglatadi.



**2-rasm. Mehnat bozori ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi va dinamik tahlili (2020–2025-yillar)**

Norasmiy sektorda band bo'lganlar soni 2020–2022-yillarda nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan bo'lsa-da, keyingi davrda uning pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Bu esa iqtisodiyotda rasmiylashtirish jarayonlari kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, rasmiy sektorda band bo'lganlar sonining yildan-yilga ortib borishi ushbu fikrni tasdiqlaydi. 2023–2025-yillarga oid ko'rsatkichlar prognoz xarakterga ega bo'lib, ular asosida norasmiy bandlikning izchil kamayishi va rasmiy bandlikning ortishi davom etishi kutilmoqda. Bu esa ijtimoiy himoya tizimi qamrovining kengayishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Ilmiy faoliyatning natijaviy xarakteri shundan iboratki, 2020–2025-yillar davomida mehnat bozori ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Norasmiy bandlik ulushining bosqichma-bosqich kamayishi bilan bir qatorda rasmiy sektorda band bo'lganlar sonining ortib borishi qayd etildi. Ushbu jarayon mehnat munosabatlarining rasmiylashuvi kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Norasmiy bandlik yuqori bo'lgan tarmoqlarda, xususan qishloq xo'jaligi, qurilish va savdo sohalarida ijtimoiy himoya qamrovining pastligi saqlanib qolmoqda. Mazkur sohalarida mavsumiylik, vaqtinchalik ish o'rinlari va kichik biznes faoliyatining kengligi rasmiy mehnat munosabatlarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Rasmiy sektorda bandlikning ortishi bilan ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb etilgan aholi ulushi kengaymoqda. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini mustahkamlash bilan birga, aholining daromad xavfsizligini ta'minlash, kambag'allik darajasini pasaytirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimi orqali pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlar qamrovining kengayishi iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Norasmiy bandlik ulushining qisqarishi va rasmiy bandlikning ortishi o'rtasida barqaror o'zaro bog'liqlik shakllangan. Ushbu jarayon ijtimoiy himoya qamrovining kengayishi bilan birga kechib, mehnat bozorida institutsional barqarorlikni kuchaytirmoqda. Yalpi ichki mahsulotning o'sishi va o'rtacha ish haqining ortishi bilan bir qatorda ijtimoiy himoya tizimining kengayishi aholi farovonligining oshishiga kompleks ta'sir ko'rsatmoqda.

2023–2025-yillar uchun shakllangan ko'rsatkichlar ushbu tendensiyaning davom etishini ko'rsatadi. Norasmiy sektor ulushining izchil qisqarishi va ijtimoiy himoya tizimining

kengayishi kelgusida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi ijtimoiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda mazkur tadqiqot natijalari norasmiy sektorni qisqartirish ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirishning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Mehnat bozori ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar norasmiy bandlik ulushining kamayishi bilan bir qatorda rasmiy bandlikning izchil ortib borayotganini ko'rsatdi. Ushbu jarayon ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb etilgan aholi sonining ko'payishiga va ijtimoiy himoya mexanizmlarining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, qishloq xo'jaligi, qurilish va savdo sohalarida norasmiy bandlikning yuqori darajada saqlanib qolishi ijtimoiy himoya qamrovining cheklanishiga olib kelmoqda. Bu esa aynan ushbu tarmoqlarda mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rasmiy bandlikning oshishi ijtimoiy himoya tizimi orqali aholining daromad xavfsizligini ta'minlash, kambag'allik darajasini pasaytirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o'ynashi aniqlandi. Iqtisodiy o'sish, ish haqi darajasining ortishi hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, norasmiy bandlikni qisqartirish va rasmiy sektorni kengaytirish orqali ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda raqamlashtirish, mehnat munosabatlarini soddalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

### Adabiyotlar/ Jumepamyra/References:

- Abdurahmonov, Q. (2019) Mehnat iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.*
- Devereux, S. (2013) Social protection for development. Routledge.*
- Esping-Andersen, G. (1990) The three worlds of welfare capitalism. Princeton University Press.*
- G'ulomov, S. (2018) Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent.*
- International Labour Organization (2018) Women and men in the informal economy: A statistical picture. Geneva.*
- International Labour Organization (2021) World social protection report 2020–22. Geneva.*
- Maloney, W.F. (2004) 'Informality revisited', World Development, 32(7), pp. 1159–1178.*
- O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (2022–2024) Mehnat bozori hisobotlari. Toshkent.*
- O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2020–2024) Bandlik va mehnat bozori bo'yicha statistik to'plamlar. Toshkent.*
- Schneider, F. (2012) The shadow economy and work in the shadow: What do we (not) know? Institute for the Study of Labor (IZA), Bonn.*
- World Bank (2019) World development report: The changing nature of work. Washington, DC.*
- World Bank (2022) Informality: Causes and consequences for development. Washington, DC.*
- Xodiyev, B. (2017) Milliy iqtisodiyot. Toshkent.*